

SUN'IY INTELLEKT BIZ UCHUN XAVFMI YOKI FOYDA?

Oltmishev Toxirjon Turgunovich

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta'lim va tasviriy san'at fanlari
kafedrasi katta o'qituvchisi, Jizzax shahar, O'zbekiston
e-mail: daddy111266@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektning jamiyatga tasiri har tomonlama tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt inson faoliyatining turli jabhalarida, jumladan, tibbiyot, ta'lim sanoat va axborot texnologiyalarida unimdorlikni oshirishda xizmat qiladi. Shu bilan birga, u ish o'rinlarining qisqarishi, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va noto'g'ri qarorlar qabul qilish xavfi kabi salbiy tasirlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Maqolada sun'iy intellekt texnologiyasining foydalari va xavflari muhokama qilinib, uning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari haqida xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, texnologik rivojlanish, xavf va foyda, ish unumdorligi, axborot xavfsizligi, ish o'rinlari.

Annotation. This artificial analyzes the impact of artificial intelligence on society from various perspectives in different fields, including, and in formation technology. However, it also presents challenges such as job displacement, data security risks, and the possibility of incorrect decision-making. The article discusses the benefits and risks of artificial intelligence, technology and provides conclusions on its future development directions.

Key words: Artificial intelligence, technological development, risk and benefit, work productivity, information security, jobs.

KIRISH

Odatda, robotlar deganda ko'pchilikning ko'z oldiga insonlardek gaplasha oladigan, ularning o'rniga barcha yumushlarni bajara oladigan yordamchilar keladi. Ammo bu nisbatan kengroq tushuncha. Aslida mobil qurilmangizdagi dasturlar: google- tarjimon, lug'atlar, turli xil o'yinlar va boshqalar ham sun'iy intellektga yaqqol misol bo'la oladi. Faqat ularning qamrovi kichikroq bo'lib, ma'lum yo'nalishlarda yordam bera oladi. Bugungi kunda sun'iy intellekt zamonaviy texnologiyalar rivojining ajralmas qismiga aylanib, inson hayotining deyarli barcha jabxalarda qo'llanilmoqda.

Dastlab nazariy tushuncha sifatida yuzaga kelgan sun'iy intellekt hozirda tibbiyot, ta'lim, sanoat, moluiya, transport va boshqa ko'plab sohalarda katta sohalarda katta inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Masalan, tibbiyot

sohasida sun'iy intellekt bemorlarni aniqroq tashxishlash va davolashda qo'llanilmoqda. Biroq sun'iy intellekt taraqqiyoti bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Bazi mutaxassislar sun'iy intellekt inson mehnatini yengillashtirish bilan birga, ish o'rinlarining qisqarishiga sabab bo'ishi, shaxsiy malumotlarning xavfsizligiga tahdid solishi va hatto insoniyat nisbatan nozoratni qo'lga olishi takidlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sun'iy intellekt- inson intellektiga tahdid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiyalar sohasi. Bundan tashqari sun'iy intellekt informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masala yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'illanadi. Bugungi kunda keng qo'llanilib kelayotgan sun'iy intellekt texnologiyalariga aqilli veb-qidiruv tizimlari va o'z-o'zini boshqaradigan avtomobillarni misol qilish mumkin. Alan Turing sun'iy intellekt sohasida olib borgan ilk tadqiqot muallifi bo'lgan. Sun'iy intellektga 1956-yil mustaqil fan sifatida asos solingan. Shu yilning yozida Dartmouth kollijida o'tgan anjumanda John McCarthy sun'iy intellekt atamasini birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallif nomi bilan kirgan. 1990-yillarda sun'iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997- yilda Deep Blue nomli kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni yenggan ilk kompyuter bo'ldi.

Sun'iy intellekt xavflari: Sun'iy intellekt haqidagi bahs- munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha bir to'xtamga kelishgani yo'q. Bazilar ularning ommalashib odamlar o'rnini egallab borayotgan natijasida ommaviy ishsizlik ko'rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislarning boshqa bir guruhi esa sun'iy intellektga ijobiy munosabatda bo'lish kerakligini uqtirishmoqda. Hatto IT- sohasidagi milliardlar orasida ham turli qarashlar mavjud. Jumladan SpaceX asoschisi Ilon Mask sun'iy intellektning butun boshli sivilizatsiyani barbod qilishga ishonchi komil. Maskning fikricha sun'iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy xafdir. Sun'iy intellekt mehnat bilan bog'liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi robotlar hamma ishni bizdan ko'ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg'or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun'iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko'rmay qolishlari mumkin. Bir necha o'n yildan

so‘ng robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach sun‘iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Bu borada Ilon Maskning fikriga qo‘shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni qiziqtirmaydi deydi Geystin. Bugungi kunda ayrim davlatlar robot mashinalar, hamshiralari, xaydovchisiz transport vositalari, buyumlarni yetqazib berivchi dronlar va robotlar foydalanish uchun yo‘lga qo‘yilmoqda. Hatto politsiya xodimlarining ham ishlarini robotlar bajarishmoqda. Olimlar imkon qadar ularning yuz ko‘rinishini odamlarnikiga o‘xshatishga harakat qilmoqda. Bu esa ko‘p insonlarning ishidan ayrilishiga va ishsiz qolishiga sababch bolmoqda. Ishsiz qolgan insonlarning ishlarini robotlar bemaolol bajarishmoqda va buni insonlardan ko‘ra yaxshiroq uddalamoqda.

Sun‘iy intellektlarning foydalari: Har qancha e’tiroz va tanqidlarga qaramay sun‘iy intellekt rivojlanishdan va odamlarga yordam berishdan to‘xtamayapti. Ayniqsa tibbiyotda uning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Robot shifokorlarning tibbiyot hodimlari bilan o‘ziga xos hamkorligi samardorlikni ancha oshirdi. Medtronis kompaniyasi esa IBM bilan hamkorlikda qandli diabet kasalligi bilan og‘rigan bemorlar uchun maxsus dastur ishlab chiqmoqda. Ko‘rib turganingizdek sun‘iy intellektning hayotimizdagi o‘rni kundan-kunga chuqurlashib bormoqda. Sun‘iy intellekt aniq fanlar, moliyalashtirish, o‘qitish, dizayin, o‘yin-kulgu va boshqa ko‘plab sohalarda o‘z o‘rnini egallaydi. Boshqa so‘zlar bilan aytganda, ilg‘or sun‘iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish dunyo axolisining tez o‘rib borayotgan hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi va turli xil xizmatlar yahshilanadi. Katta ehtimol bilan inson hayotining farovonligiga yaqinlashtirish mumkin. Sun‘iy intellektning talim sohasida ham o‘rni juda yuqori. Masalan katta hajmdagi malumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilib eng maqbul yechimlarini taklif qiladi. Bundan tashqari sun‘iy intellekt insonlar xatosini kamaytiradi va insonlar bajara olmagan murakkab ishlarni ham bajarishmoqda. Umuman olganda, sun‘iy intellekt inson hayotini yengillashtirish va turli sohalarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Sun‘iy intellektlarning eng katta yutuqlaridan biri shundaki, u inson xatolarini kamaytiradi. Odamlardan farqli o‘laroq, kompyuter mashinasi to‘g‘ri dasturlashtirilgan bo‘lsa, xatolarga yo‘l qo‘maydi, odamlar esa vaqti-vaqti bilan xatolar qilib turadi. Sun‘iy intellektlar odamlardan farqli laroq tanaffuslar va yangilanishlarini talab qilmaydi. Oddiy odam 8-9 soatgacha, jumladan tanaffuslar va yangilanishlarni ham davom ettira

oladi, kompyuter mashinasi esa 24/7 tanaffuslarsiz ishlaydi va hatto zerikmaydi. Sun'iy intellekt robotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi odamlarning ko'plab xavfli cheklovlarini yengib o'tishga qodir va biz uchun xavfli ishlarni amalga oshirish mumkin, masalan bombani zararsizlantirish, neft va ko'mir qazib olish, okeanning eng chuqur joylarini o'rganish va hokazo. Bundan tashqari sun'iy intellektlar odamlarga qaraganda, tezroq qaror qabul qilishga va harakatlarni tezroq bajarishga yordam beradi. Qaror qabul qilishda odamlar ko'plab omillarni tahlil qiladilar, sun'iy intellektlar esa dasturlashtirilgan narsa ustida ishlaydi va natijalarni tezroq ko'rish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda sun'iy intellektlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgirdi. Ammo uning ma'lum bir kamchiliklari ko'zga tashlanmoqda. Masalan sun'iy intellekt rivojlanishi tezlashgan sari kasbiy faoliyatlar ham asta sekin kamayib bormoqda. Xususan, sog'liqni saqlash, o'qituvchilik va advokatlik, favqulotda vaziyatlarga javob beruvchilar, ijtimoiy ishchilar, mijozlarga xizmat ko'rsatuvchilar faoliyatiga sezilarli darajada o'z tasirini ko'rsatmoqda. Shunga qaramasdan bugungi kunda sun'iy intellekt mavjud odamlarni juda ko'p sohalarda qo'llab- quvvatlamogda, shu jumladan savdo, yuridik va shifokorlik sohalari shular jumlasidandir. Sun'iy intellekt zamonaviy texnologiyalarning muhim qismi bo'lib, ko'plab sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Uning samarali ishlatilishi inson hayotini yengillashtirilishi va rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Sun'iy intellektlar rivojlanishi insonlarni yalqov va dangasa qilib qo'ymoqda. Bunda tashqari insonlar kutubxonalarga borib kitoblardan foydalanish ko'rsatgichi yildan-yilga tushib ketmoqda. Insonlar deyarli hamma narsani uydan chiqmasdan va izlanmasdan sun'iy intellektlar orqali bajarishmoqda va ularga bog'lanib qolishmoqda. Ko'pchilik maktab o'quvchilari ham sodda bo'lgan uy vazifalarini sun'iy intellektlar yordami bilan bajarishmoqda. Afsuski bu narsalarga ularning ota- onalari befarq qolishmoqda. Bu esa insonlarning fikirlash doirasi o'smasdan tor doirada qolishi, o'ziga ishonchsizlik hissining ortishiga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellektdan juda ko'p foydalangan insonda birinchi o'rinda o'ziga ishonchsizlik hissi juda yuqori bo'ladi va oddiy narsalarni ham sun'iy itelektga tashlab ko'radilar va shundan so'nggina ishonch xosil qilib ko'radilar. Hammaning faqat sun'iy intellektlardan foydalanishi va o'z bilimiga tayanib ish ko'rmasligi, izlanmasligi va

hamma narsani sun'iy intellekt orqali hal qilishi, bugun emas, lekin qachondir o'z aks tasirini va salbiy jihatlarini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russell, S., & Norvig, P.(2020).Artificial intelligence:A Modern Approach (4thed.). Pearson.
- 2.Tegmark, M. (2017). Life 3.0: Being Human in the Age of Artificiala intelligenc, Knopf.
3. <https://livetilesglobal.com/pros-cons-artifical-intelligence-classroom>
4. <https://www.technologyreview.com>
5. <https://aiindex.stanford.edu>
6. <https://www.ibm.com/artifical-intelligence>
7. <https://ai.harvard.edu>
8. <https://ftureoflife.org>
9. <https://www.aligmentforum.org>
10. <https://www.javatpoint.com/advantages-and-disadvantage-of-artifical-intelligence>